

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT











Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yanvar-mart oylari uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda **13 043,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,1 %ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2023- yil narxlariga nisbatan 111,8 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,4 %ga yetdi

Yalpi hududiy mahsulot


(2024- yil yanvar-mart holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko'rsatkichlar	mlrd.so'm		2023- yil nisbatan, % hisobida
	2023-yil	2024-yil	
 Yalpi hududiy mahsulot, jami	10 991,1	13 043,9	106,1
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 634,9	12 712,2	106,1
 Mahsulotlarga sof soliqlar	356,2	331,7	106,6
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 634,9	12 712,2	106,1
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 034,8	2 250,8	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 082,3	3 764,4	107,9
 sanoat	2 354,5	2 938,5	108,1
 qurilish	727,8	825,9	107,5
 Xizmatlar	5 517,8	6 697,0	105,9
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 113,3	1 318,4	109,2
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	875,2	1 056,3	108,5
 boshqa xizmatlari	3 529,3	4 322,3	104,2

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati- 104,0 %, (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,7 %), sanoatda – 108,1 % (23,1 %), qurilishda – 107,5 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 105,9 % ni (52,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,2 % (10,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,5 % (8,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,2 % dan (34,0 %)ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,5 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,7 %ni, sanoat tarmog'i 23,1 %ni, qurilish 6,5 %ni va xizmatlar sohasi 52,7 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2024-yilning yanvar-mart oylarida 52,7 %ni tashkil etdi va 2023- yil (52,0 %) bilan taqqoslanganda 0,7% punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi


(yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,4 %ni (2023- yil- 10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 8,3 %ni (8,2 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 34,0 %ni (33,3 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi


(yanvar-mart, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 3 204,5 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (2 757,8 ming so'm) mos davriga nisbatan 3,9 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 64,0 %ni tashkil qildi.


2023-2024- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)






Sanoat



Xizmatlar



2024- yilning yanvar-martida YaHM deflyatori indeksi 2023- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 111,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda– 115,5 % va xizmatlar sohasida – 114,6 % ni qayd etildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %da

2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 64,0 % (2023- yilning yanvar-mart oylarida 62,3 %)ni tashkil qildi.

2024


• 64,0

2023

• 62,3

Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 5,4 %ni tashkil etdi.



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–mart holatiga

Hududlar	YaHM mlrd. so'm			Aholi jon boshiga, ming so'm		
	2023- yil	2024 - yil	%	2023- yil	2024- yil	%
O'zbekiston Respublikasi	201 680,0	242 701,6	106,2	5 584,9	6 580,6	104,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 091,2	7 071,2	105,6	3 077,9	3 525,6	104,2
Andijon	9 781,8	12 770,5	113,1	2 937,1	3 754,2	110,7
Buxoro	8 662,8	10 176,9	106,9	4 303,2	4 970,9	105,1
Jizzax	5 404,2	6 368,6	107,7	3 653,2	4 215,1	105,4
Qashqadaryo	9 884,7	11 381,3	107,1	2 831,8	3 189,1	104,8
Navoiy	15 990,1	20 993,1	107,8	15 113,6	19 481,3	105,8
Namangan	7 678,6	9 253,8	108,3	2 555,3	3 011,3	106,0
Samarqand	12 854,1	15 550,7	106,3	3 113,9	3 686,8	104,0
Surxondaryo	6 544,1	7 639,6	105,5	2 325,5	2 648,6	102,9
Sirdaryo	3 828,8	4 650,6	105,8	4 260,3	5 077,1	103,8
Toshkent v.	20 834,3	24 937,3	106,9	6 943,8	8 152,4	104,8
Farg'ona	10 991,1	13 043,9	106,1	2 757,8	3 204,5	103,9
Xorazm	6 557,3	7 579,8	105,7	3 342,8	3 791,4	103,7
Toshkent sh.	38 347,7	48 884,3	110,5	12 921,7	16 029,7	107,5